
TOSHLOQ TUMANIDA AHOLINING ICHIMLIK SUVI TA'MINOTI YAXSHILANMOQDA

Tumanda aholining ichimlik suv bilan ta'minlash, oqova suv tarmog'ini yaxshilash borasida joriy yilda ham bosqichma-bosqich ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayni kunlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 408-sonli Qaroriga ko'ra, tumandagi Yakkavut, Xotinqumi, Qanjirg'a, Guzarboshi hamda Chek MFYlarda yangi suv inshooti va tarmoq tortish ishlari olib borilmoqda. Xususan, Xotinqumi MFY hududida 2 ta yangi suv qudug'ini qazish hamda 8 km.lik tarmoq tortish ishlariga 3 milliard 800 mln so'm mablag' ajratildi. Qanjirg'a MFYda esa 1 ta suv inshooti hamda 5 km.lik ichimlik suvi tarmog'i uchun 2 milliard 650 mln so'm mablag' yo'naltirildi.

2023-02-04 14:02:46